



HISTORICAL CONDITIONS FOR THE EMERGENCE OF MASS CULTURE

Akbar Atamukhammedov

Researcher at the National University of Uzbekistan

atamuxammedov.akbar@bk.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Mass culture, mass society, mass media, newspapers, mass magazines, "ten-cent" popular novels, radio, gramophone recording, cinematography, television, the Frankfurt School.

Received: 20.07.26

Accepted: 21.07.26

Published: 22.07.26

Abstract: The article highlights issues related to the emergence of mass culture and its impact on the spiritual life of society, as well as issues related to the focus on this field. Additionally, this article provides a historical analysis of the interconnection between the concepts of "mass society" and "mass culture." The author explains the emergence of mass culture by linking it to changes in the social structure and the needs of industrial society. The article examines the impact of mass culture on an individual's spirituality. The article is dedicated to the history of mass culture based on archival documents from the funds of the National State Archive of Uzbekistan, scientific research by foreign and local researchers, monographs, and brochures, and contains conclusions on the topic.

OMMAVIY MADANIYAT YUZAGA KELISHINING TARIXIY SHART-SHAROITI

Akbar Atamuxammedov

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

atamuxammedov.akbar@bk.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Ommaviy madaniyat, ommaviy jamiyat, ommaviy kommunikatsiya vositalari, gazetalar, ommaviy jurnallar, "o'n sentli" ommabop romanlar, radio, grammofon yozuvi, kinematografiya, televideniye, Frankfurt maktabi.

Annotatsiya: Maqolada ommaviy madaniyatning vujudga kelishi va uning jamiyat ma'naviy hayotiga ta'sirini oid masalalarni o'rganish va bu sohaga e'tibor qaratilishi bilan bog'liq bo'lgan muammolar yoritilgan. Shuningdek, ushbu maqolada "ommaviy jamiyat" va "ommaviy madaniyat" tushunchalarining o'zaro bog'liqligi tarixiy

jihatdan tahlil qilingan. Muallif ommaviy madaniyatning yuzaga kelishini ijtimoiy tuzilmaning o'zgarishi va industrial jamiyat ehtiyojlari bilan bog'lab tushuntiradi. Maqolada ommaviy madaniyatning shaxs ma'naviyatiga ta'siri masalalari yoritilgan. Maqola O'zbekiston Milliy Davlat arxivi fondlaridagi arxiv xujjatlari, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, monografiya, risolalar asosida ommaviy madaniyat tarixiga bag'ishlanib, mavzuga doir xulosalarni o'z ichiga oladi.

ИСТОРИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Акбар Атамухаммедов

Исследователь Национального университета Узбекистана

atamuxammedov.akbar@bk.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Массовая культура, массовое общество, средства массовой коммуникации, газеты, массовые журналы, "десятицентовые" популярные романы, радио, граммофонная запись, кинематография, телевидение, Франкфуртская школа.

Аннотация: В статье освещаются проблемы, связанные с изучением вопросов возникновения массовой культуры и ее влияния на духовную жизнь общества, а также внимание, уделяемое этой сфере. Также в данной статье с исторической точки зрения анализируется взаимосвязь понятий "массовое общество" и "массовая культура." Автор объясняет возникновение массовой культуры в связи с изменением социальной структуры и потребностями индустриального общества. В статье освещаются вопросы влияния массовой культуры на духовность личности. Статья посвящена истории массовой культуры на основе архивных документов фондов Национального государственного архива Узбекистана, научных исследований зарубежных и отечественных исследователей, монографий и брошюр, и содержит выводы по теме.

Kirish. "Ommaviy madaniyat" atamasi XX asrning 30-yillarida jahon hamjamiyatida yangi madaniyatning ildiz otishiga munosabat, ijtimoiy tuzumning yangi variantiga asoslangan "ommaviy jamiyat" nomi bilan shakllandi.

Ommaviy jamiyatni nazariy tushunishga urinishlar XIX asr oxirida boshlangan bo'lib, aynan o'sha vaqtlardan olimlar madaniyatdagi inqirozli hodisalarni tahlil qilishga urindilar.

Jumladan, “ommaviy inson” tushunchasining paydo bo‘lishi, urbanizatsiya va mexanizatsiya, jamiyatni demokratlashtirish tendensiyalari siyosiy va madaniy hayot, “omma”, “ommaviylik”, “ommaviy inson” tushunchalarini ilmiy ishlab chiqish, ommaviy ongni o‘rganishda asosiy bo‘lib qolgan “ommaviy ong” madaniyati kabilar tahlil etildi [1].

Insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki, har qanday jamiyatda kechayotgan jarayonlarda uning rivojlanishi hamda tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘ladigan turli holatlar har doim bo‘lgan. Har ikki holat rivojlanishi va tanazzulida ham insonlar “omma”si muhim o‘rin egallaydi. Ya’ni, jamiyatdagi voqea-hodisalarning tizimlilik bilan rivojlanib borishida yoki uning yemirilib parokandalikka yuz tutishida “omma”ning roli katta ahamiyatga ega hisoblanadi [2]. Shuning uchun ham jamiyatda bu masalalar keng o‘rganildi.

Adabiyotlar sharxi. Tadqiqotlar natijasi Markaziy Osiyo mamlakatlarida ommaviy madaniyatning shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ta’lim-tarbiyaviy, axloqiy-psixologik omillari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lganligini ko‘rsatdi. Bu hududda ommaviy madaniyat o‘ziga xos to‘rt bosqichni bosib o‘tganligi aniqlandi. Birinchi bosqichda XIX asrda ommaviy madaniyat shakllanish jarayoni yuz berdi. Ikkinchi bosqichda ommaviy madaniyat o‘zi XX asrning 20-30 yillarda yuzaga kelgan, bu davrda uning ijtimoiy yo‘nalishi va o‘ziga xos xususiyatlari belgilandi. Uchinchi bosqichda XX asrning 60-70 yillari g‘oyaviy sovet ommaviy madaniyatidan G‘arb namunasidagi iste’molchilikka asoslangan ommaviy madaniyatga o‘tish davri bo‘ldi. To‘rtinchi bosqichda 1980 yildan to hozirgi vaqtgacha ommaviy madaniyat rivojlanishda davom etmoqda. Bunday ommaviy madaniyatning xususiyatlari quyidagilar bilan xarakterlanadi. Insonlar ongida hanuz sovet davridan qolgan, chuqur ildiz otgan stereotiplar va zamonaviy jamiyat qadriyatlari o‘rtasida ziddiyatlar paydo bo‘lganligi aks etadi [2. 22-b.].

Shuningdek, ommaviy madaniyatni tadqiqotchilar qadimgi Gretsiya va Rimda keng tarqalgan o‘yinlarning nisbatan ommalashganligi va bahramand bo‘lish uchun qulayligidan kelib chiqib, antik madaniyat bilan bog‘lashadi. Vaholanki, “ommaviy madaniyat — madaniyatning murakkab, hamma vaqt bir xil tadqiq qilinmaydigan o‘ziga xos shaklidir. Ommaviy madaniyatni G‘arb madaniyati bilan bog‘liq xodisa deb tushunish, shuningdek, uni g‘oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholash keng tarqalgan. Ayni paytda folklor, xalq madaniyati ham ommaviy madaniyat ko‘rinishlari sifatida talqin qilinadi. Ommaviy madaniyat chukur ijtimoiy va madaniy ildizlarga ega hisoblanadi [3].

Muhokama va natijalar. Aslida esa ommaviy madaniyatning to‘laqonli yuzaga kelishi Angliyada paydo bo‘lgan sanoat revolyutsiyasi bilan bog‘liqdir. Bunda o‘rta asrlar Yevropasida adabiyot yoki teatr keng yoyilmadi. Besh yuz yil avval kitob qo‘lda ko‘chirilardi. Kotib bir varaq qog‘oz ustida enkayib o‘tirib, buyurtma berilgan kitobni patqalam bilan satrma-satr ko‘chirib

yozardi. Eng chidamli va tajribali kotib bir kunda kitobdan ko'pi bilan 10-15 saxifa ko'chirardi. Shu bois kitoblar kamyob bo'lib, narxi baland edi, ustiga-ustak har kim ham o'qishni bilavermasdi. Biroq vaqti kelib, bu ahvol butkul o'zgardi. "Insoniyat boshiga tushgan eng katta musibat bosma dastgohning kashf etilishi bo'ldi", - degandi bir vaqtlar Benjamin Dizraeli. Bu kashfiyotni shu qadar salbiy baholagan Dizraeli haqmidi yoki yo'qmi - gap bunda emas. Biroq uning iqtisodiyotga va, birinchi navbatda, madaniyatga ta'siri chindan ham beqiyos bo'ldi. Oqibatda, ilgari kotiblar ko'chirgan asarlardan ozgina imtiyozli kishilar foydalangan bo'lsa, kitob bosma dastgohda ko'paytirilgach, ko'pchilikning, birinchi navbatda, shahar aholisining mulkiga aylandi. Natijada shaharliklarning ma'naviy dunyosi ularning hayotiy tajribasi, og'zaki an'analari hamda diniy urf-odatlar bilangina emas, balki yuksak san'at bilan ham belgilana boshladi. Shunday qilib, bosma dastgoh oz sonli madaniyatli kishilarning ijodiy yutuqlari nusxasini ko'paytirib, madaniyat sohasini demokratlashtirish uchun zamin yaratdi. Bunday demokratlashtirish oqibatida kitobga talab ortib, XVII-XVIII asrlar Yevropa adabiyotida shu vaqtgacha noma'lum bo'lgan yangi sarguzasht, detektiv, avantyura romanlari janrlari yuzaga kelib, ko'p nusxada chop etilgani bois kitobxonlar doirasi ham kengaydi [4].

Shu tariqa, birgina ixtiro tufayli ommaviy madaniyat yuza keldi. Bu madaniyatga xos asarlar foydalanish uchun qulayrok bo'lib qoldi, ularning tarqalish doirasi anchagina kengaydi. Avvallari bir gladiator yoki olimpiada g'olibi bo'lgan sportchining shuxrati Gretsiya yoxud Qadimgi Rim chegarasidan tashqariga chiqmagan, o'rta asrlar teatr truppasi o'z shahri hududini tark etmagan bo'lsa, endilikda Yevropada istiqomat qiluvchi muallifning asarini Osiyoda ham, Amerika qit'asida ham o'qish imkoniyati vujudga keldi. Bu esa jamiyatda ommalashib borayotgan yangi bir madaniyatning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Bundan tashqari, ommaviy madaniyat hodisasining yuzaga kelishi va jadal rivojlanishiga ommaviy kommunikatsiya vositalari hisoblangan gazetalar, ommaviy jurnallar, "o'n sentli" ommabop romanlar, radio, grammofon yozuvi, kinematografiya, keyinchalik esa televideniye, magnit va video-magnit yozuvining rivojlanishi sabab bo'ldi. Bularning hammasi texnik aloqa vositalari yordamida uzatiladigan axborot hajmini juda ham oshirib yubordi va san'atning shu paytga qadar yopiq bo'lgan olamini saylangan kishilar uchun madaniyatni birmuncha demokratlashtirish, hamma va har kim bahramand bo'laoladigan qilish imkonini berdi. Biroq, shu bilan bir vaqtda, madaniyat saviyasining umumiy tarzda pasayishiga ham olib keldi, chunki endi u jamiyatning nafaqat madaniy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan elitasiga, balki yuksak, elitar madaniyat qadriyatlarini idrok etishga qodir bo'lmagan kishilarga ham mo'ljallangandi. Shu bois elitar madaniyat qadriyatlarini o'rtamiyona holatga keltirish talab qilingandi [4. 35-6.].

Shuningdek, “Ommaviy madaniyat” muammolari dunyoning turli davlatlarida turli maktablar va yo‘nalishlarning tadqiqot obyektiga aylandi, ulardan biri Frankfurt maktabi hisoblanadi. “Ommaviy madaniyat” madaniy industriyalar kesimida ham ko‘rib chiqildi. Frankfurt ijtimoiy tadqiqotlar maktabi 1923-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning asoschilari o‘sha davrdagi kapitalistik jamiyatning asosini tashkil etuvchi ijtimoiy ziddiyatlarni ko‘rsatishga intilgan olimlar, ziyolilar edi. Maktabning vazifasi jamiyatning nazariy tanqidini ishlab chiqish edi. Frankfurt maktabining eng mashhur vakillari T. Adorno, M. Xorkxaymer, V. Benyamin va G. Markuzelar bo‘ldi.

1940-yillarda Gitler siyosatidan qochgan Frankfurt maktabi vakillari AQSHga ko‘chib o‘tdilar va bu ko‘chish maktabning ommaviy madaniyat va ommaviy axborot vositalarini tahlil qilishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu maktab vakillari ommaviy madaniyatning kuchi shundaki, u iste’molchilarning tafakkuri va reaksiyasini infantil statik holatda ushlab turish orqali konformizmni keltirib chiqarishga qodir, degan xulosaga keldilar. Ommaviy madaniyat yolg‘on va’dalar yoki instinktlarni qondirish orqali iste’molchi muhitini manipulyatsiya qilish qobiliyatiga ega. Frankfurt maktabi nazariyotchilarining fikriga ko‘ra, o‘tmish va zamonaviy, ommabop madaniyat o‘rtasida chuqur uzilish mavjud bo‘lib, bu sanoatlashgan jamiyatda institutsional o‘zgarishlardan tashqari, o‘zgarishlar ham sodir bo‘layotgani bilan bog‘liq, bunday o‘zgarishlarning eng muhimi, shubhasiz, individuallikni yo‘qotishdir [3].

Frankfurt maktabi vakillari, ayniqsa, U.Markuze aynan kapitalistik tizimning barqarorligini uning moddiy farovonlik va iste’molchilikni yaratish qobiliyatining natijasi sifatida ko‘rganligini e’tiborga oladi. Bu jarayonda “soxta ehtiyojlar”ni qondirish muhim rol o‘ynaydi. Odamlar ongsiz ravishda kapitalistik tuzumning o‘zi bilan murosaga keladilar, odamlarning murosaga kelishi esa tizimning barqarorligi, uzluksizligini kafolatlaydi [3.39-b.]. Umuman olganda, Frankfurt maktabi namoyandalari ommaviy madaniyat nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdilar. Ya’ni ommaviy madaniyatning yuzaga kelish sabablari, uning jamiyatga ta’siri keng ochib beriladi.

Shu o‘rinda ommaviy madaniyatga ta’rif berish zarur. Ommaviy madaniyat - bu keng ommaning didiga moslashtirilgan, texnik jihatdan ko‘p nusxalar shaklida ko‘paytiriladigan va zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tarqatiladigan madaniyatdir [6].

Bugungi kunda ommaviy madaniyat olim va mutaxassislar tomonidan turlicha talqin etilmoqda. Masalan, birinchidan, ommaviy madaniyat bu – xalq madaniyati, urf-odatlar, marosimlari, san’ati va shu kabilarni ifodalovchi tushuncha. Ikkinchidan, ommaviy madaniyat ommaviy axborot vositalari rivoji bilan bog‘liq hodisa.

Uchinchidan esa, ommaviy ishlab chiqarish, “ko‘ngilochar industriya” tomonidan yaratilgan, omma iste’moliga mo‘ljallangan madaniyatning siyqalashtirilgan namunalari ko‘rinishidagi salbiy hodisadir.

Bugungi kunda ommaviy madaniyat madaniy-mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollaridan biriga aylangan. Iste’molchilik kayfiyati o‘zagini tashkil etgan ommaviy madaniyat asl kishilik madaniyatiga zid, uni poymol etadigan, mohiyatini buzadigan va oxir-oqibat insonni jon saqlashdan o‘zga maqsadi bo‘lmagan jonzot, hayvon darajasiga tushiradigan, xalqni esa olomonga aylantiradigan hodisadir [7].

Bundan tashqari, ommaviy madaniyat juda ko‘p g‘oyaviy manbalarga ega hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ommaviy madaniyatning yuzaga kelishi bir necha asrlarga borib taqaladi. Ya’ni ommaviy madaniyat faqat XX asrdagi texnik taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan global madaniyatning yangi tipi emasligini anglatadi [8].

Shuningdek, “ommaviy madaniyat” asosini ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlari tashkil qiladi. “Ommaviy madaniyat” shaxs madaniy ongini noto‘g‘ri shakllantiradi, milliy madaniyatni buzadi, umuminsoniy madaniy qadriyatlarni shubha ostida qoldiradi. Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solib kelmoqda [9].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ommaviy madaniyat globallashuv davrining mahsuli sifatida zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. U bugungi kunda ijtimoiy ongni standartlashtirish va iste’molchilik kayfiyatini shakllantirish orqali milliy madaniyatlar tizimiga transformatsiyalovchi ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, ommaviy madaniyatga faqatgina salbiy hodisa deb qarash emas, balki uning texnik imkoniyatlaridan milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishda foydalanish, shu bilan birga, yoshlarda uning salbiy ta’sirlariga qarshi “mafkuraviy immunitet”ni shakllantirish davr talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маклюэн М., Галактика Гуттенберга. Становление человека аечатающего. – Москва. 2005. – С. 18.
2. Madraximova F.R. Globallashuv jarayonida “Ommaviy madaniyat” tahdidlarining oldini olish masalalari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. 2017. 13, 22-b.
3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izoxli lug‘ati. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. - 460-b.
4. G‘oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – Toshkent. O‘zbekiston. 2012. 21-b.

5. Гудков Л., Страда В. Массовая культура как социальный феномен. Литература и общество: введение в социологию литературы. - М.: РГГУ, 1998. – С. 39, 43.
6. Usmonov M. Ommaviy madaniyati tushunchasiga oid qarashlar //Academic Research in Educational Sciences Volume 3.2022 ISSN: 2181-1385. P.740.
7. Монтень М. Опыты. Кн. III. - М.-Л.: 1960. - С . 71.
8. Радугин А.А. Культурология. - М.: Центр, 2001. — С. 87.
9. Ibragimov S. “Ommaviy madaniyat” tushunchasi va uning yoshlar tarbiyasiga taʼridi// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(11), November, 2023. P. 103.